

Quchqorova Maxsuda Maxkamovna

Fargʻona davlat universiteti geografiya kafedrasi oʻqituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik muammolar va ularning amaliy geografik asoslari, hozirgi kundagi ekologik muammolar va ularning yechimlari boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit soʻzlar: *Ekologik muammolar, Ekologik tangliklar, atrof-muhitni muhofaza qilish, Bogʻ va oʻrmon.*

ASOSIY QISM: Ekologik muammolar hozirgi davrda jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlarining tez surʼatlar bilan oʻsishi, tabiatdan pala-partish foydalanish va oʻzlashtirish natijasida ekologik muvozanat buzilib, ekologik tanglik yuzaga keldi. Ekologik tangliklar oʻz navbatida avj olib, sayyoramizning baʼzi mintaqalarida ekologik halokatlarni keltirib chiqaradi. Ekologik muammolar oʻz vaqtida hal qilinmasa muayyan hududga ekologik halokat xavfini olib keladi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga taʼsiri bilan bogʻliq holda tabiatning ham insoniyatga aks taʼsiri tushuniladi.

Oʻzbekistonda soʻngi qisqa vaqtlar mobaynida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir 30 ta qonun va 350 ta meʼyoriy- huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va xoʻjalik yuritishda ekologik usullarni joriy etish, atrof-muhit muhofazasini yaxshilash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-sentabrda 212-sonli —Oʻzbekiston Respublikasi atrof-muhit muhofazasi ishlari dasturi va uni roʻyobga chiqarish tadbirlari toʻgʻrisida gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni taʼminlash; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va xoʻjalik yuritishda ekologik usullarni joriy etish, meʼyoriy –huquqiy asoslarni muvofiqlashtirish va ekologiya fanini, aholining ekologik taʼlimi va tarbiyasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlik va mintaqaviy ekologik xavfsizlik kabi toʻrtta yoʻnalish boʻyicha amalga oshiriladigan tadbirlar rejalashtirilgan.

Atmosfera havosi va butun atrof-muhitning ifloslanish muammosini ijobiy hal qilish va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanishning eng samarador istiqbolli yoʻlini ishlab chiqarish jarayonlarini butunlay yoki yangi texnologik sistemaga oʻtkazish, yaʼni chiqindisiz texnologiyalarni joriy etishdan iboratdir.

Havo ifloslanishini bartaraf qilishda eng qiyin vazifalardan biri avtotransportlardan chiqadigan gazlarni kamaytirish muamosidir. Hozirgi vaqtda avtomabillar chiqaradigan zaharli gazlarni yoʻqotish, kamaytirish uchun ularning matorlarini takomillashtirish hamda yoqilgʻilar sifatini yaxshilashga qaratilgan gaz, elektromobil oʻtkazish zarur.

Havo ifloslanishiga qarshi kurashishning eng yaxshi va ishonchli usullardan biri – biologik yashil uslub bo‘lib, bunda maydonlar yashil o‘simlik bilan qoplanadi. Bog‘ va o‘rmon bog‘lari, madaniyat va istirohat bog‘lari, xiyobonlar kengaytiriladi. Daraxtzor, butazor hamda o‘tloqzorlar ifloslangan havodagi chang va gazlarni tutib qolib, mexanik va kimyoviy filtr vazifasini bajaradi. Co₂ gazini qayta ishlab, ularning tarkibiga kiruvchi uglerodni o‘zlashtiradi va havoga sof kisloridni ajratib chiqaradi. Bog‘lardagi yashil o‘simliklar shahar havosiga kuniga 20,4 t sof kislorodni yetkazib beradi. Iliq, quyoshli kunlarda bir gektar yerdagi yashil daraxtlar fotosintez jarayonida havodan 220-280 kg Co₂ olib, 180-220 kg O₂ ajratib chiqaradi. Misol uchun: Bir gektar yerdagi olxo‘rizor 32 t, qarag‘ay o‘rmoni 32t, qoraqayin o‘rmoni esa 68t changni tutib qoladi. Balandligi 25 metrli bo‘lgan bir tup qoraqayin daraxti soatiga 2kg karbonat angidridni yutib havoga 2kg sof O₂ ajratib chiqaradi. O‘rmon, butazor va o‘tloqzorlar shahardagi chang zarrachalarni 80%ini, CO₂ ning 60%i ni ushlab qoladi.

Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa ko‘p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmush tarzini belgilash imkonini beradi. Tabiatga yetkazilayotgan zararni quydagicha kamaytirish imkonini beradi.

- Ishlab chiqarishdagi zararli tarmoqlarni ekologik jihatdan mukammallashtirish;
- Kam chiqindi ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishga erishish;
- Havoga, suvga va tuproqqa tashlanadigan chiqindilarni to‘liq tozalashga erishish.

Xomashyo va energetika zaxiralardan to‘liq foydalanish. Ma‘lumki yoqilg‘i-energetika zahiralardan to‘liq foydalanilmaydi, ko‘p qismi behuda tozalanmay atmosferaga yoki tuproqqa tushib ketadi. Masalan neftni qayta ishlashda uning tarkibidagi oltingugurt sof holda bo‘lib undan zarur sohalarda foydalanish mumkin. Ammo bizdagi deyarli ko‘p tashkilotlarda bundan ham qo‘shimcha daromad va ekologik tozalik jarayonlarga e‘tibor berilmaydi. Aslida psixologik jarayonlarni mukammallashtirish atmosferani issiq, ifloslanishdan va shuningdek atrof-muhitni qisman bo‘lsa ham toza saqlashga erishiladi. Hamda 42 qo‘shimcha issiqlik hosil qilish uchun yana yoqilg‘i sarflanib atmosferaga CO₂ va NO₂ tashlanmaydi. Ikki tomonlama tejash ishlari olib boriladi. Kam chiqindili texnologiyani quyidagi holatlarda amalda foydalanish mumkin. Masalan, oddiy neftni qayta ishlash zavodida suvdan foydalanish jarayoni; zavodda suv aylanish tizmidan tashqari har bir bo‘limida alohida suvning aylanish tizimi mavjud. Har bir bo‘limning o‘z suv aylanish tizimining bo‘lishi suvni tayyorlash, texnologik jarayonida uning ham sarflashga, shuningdek, suv bilan zaharli moddalarni atrofga tashlashni O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan, —Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunga amal qilish kerakligi har bir kishining fuqorolik burchidir. Shunday ekan, ko‘chalarimiz, hovli va xiyobonlarni, ko‘p qavatli uylarning atrofini archa, terak, majnuntol kabi daraxt ko‘chatlari ekib havosini musoffoligini ta‘minlashimiz kerak. 100 tup terak 400 kg changni yutib qolishi aniqlangan. Buyuk tibbiyot dahosi Abu Ali ibn Sino xaqiqatni

aytgan rost. —Chang bo‘lmaganda edi, inson 1000 yil yashashi mumkin, -deya o‘z fikrini bildirgan.

Bunday manzarali o‘simliklar havodagi zaharli chang, karbonat angidridni yutib atmosferaga kislorodni yetkazib berishi ayni muddao, bundan tashqari ular tuproq tarkibidagi ortiqcha suvni transpiratsiya qilishi orqali havodagi namlikni mo‘tadillashtirib, issiqxona effektil va tuproqning botqoqlashini oldini oladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda va tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda hozirgi kunda qo‘llanilayotgan iqtisodiy mexanizimlarni yanada takomillashtirish, tabiatdan noto‘g‘ri foydalanishga tabiat solig‘ini qo‘llash hamda jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishni rivojlantirishda ekologik talim-tarbiyaning samarali mexanizimlarini ishlab chiqish kerak. Bu bilan respublikamizda ishlab chiqarishni va insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini tartibga solish imkoniyati tug‘iladi. Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish, jamiyatda ekologik madaniyat, ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlarining ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona vatanimizga bo‘lgan farandlik burchidir.

Atmosfera havosini toza saqlashda sanoat ob‘ektlarini geografik sharoitga qarab joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda sanoat ob‘ektlari va yirik kommunal korxonalari alohida sanoat zonasida uy-joy massivlaridan tashqarida bo‘lishi kerak. Sanoat korxonalardan chiqyotgan chang qurum va gazlar uy-joy zonasi bilan sanoat zonasi orasida kengligi 100 m dan bir necha km keladigan yashil o‘simliklardan iborat sanitariya–ximoya zonasi bo‘lishi kerak.

Chorralarda avtomabillar to‘planib qolsa, o‘sha joylarda zararli gazlar ko‘proq to‘planib qoladi. SHuning uchun serqatnov ko‘chalarda avtomobil tunnelli, ko‘priklari va yo‘lovchilar uchun yer osti o‘tish joylari qurish avtomabillarning to‘xtovsiz harakatini ta‘minlaydi. SHahar havosini toza saqlashda tranzit shaharlararo qatnovidagi transportni shahar ko‘chalariga qo‘ymaslik, ularni shahar atrofidagi aylanma yo‘l xalqasi orqali o‘tkazib yuborish yaxshi natija beradi. Avtotransport serqatnov ko‘chalar atrofida o‘simlik 43 zonalarini tashkil etish kerak. Bu o‘simlik to‘siqlari avtomabillardan chiqqan zaharli gazlarni yutib turishdan tashqari shovqin-suronni keskin kamaytiradi. Shaharlar havosini toza saqlash uchun jamoat transportining elektrenergiya asosida ishlovchi atmosferani ifloslamaydigan turlariga—metro, trolleybus, tramvaydan foydalanishga o‘tish zarur. Shaharlarda atmosfera havosini toza saqlashda elektrlashtirilgan transport ahamiyati yuqoridir. Elektirlashtirilgan transport aholini iflos gazlardan himoya qiladi.

1. Кучкорова, М. М. (2019). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ УРБОЭКОЛОГИЧЕСКО ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ОРГАНИЗАЦИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА. *Экономика и социум*, (10), 477-480.
2. Кучкорова, М. М. (2019). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ УРБОЭКОЛОГИЧЕСКО ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ОРГАНИЗАЦИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА. *Экономика и социум*, (10), 477-480.
3. Mahsuda, Q. C. (2022). The Importance of Protected Natural Areas in Preserving Rare Landscapes. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*, 3(1), 330-333.
4. Qo'Chqorova, M. M. (2022). THE ESSENCE, STRUCTURE AND IMPORTANCE OF TOURISM INFRASTRUCTURE. *Scientific progress*, 3(1), 1040-1043.
5. Abduganiev, O. I., & Makhkamov, E. G. (2022). ECOLOGICAL TOURISM IN PROTECTED NATURAL AREAS. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(02), 25-32.
6. Makhkamov, E. G., Umurzakova, G. A., & Gopporova, F. B. (2022). PROSPECTS OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN FERGANA PROVINCE. *Journal of Geography and Natural Resources*, 2(02), 33-39.
7. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАХЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(1), 53-58.
8. Topvoldievich, Pirnazarov Ravshan, and Muhitdinov Ilhomjon Ikhtiyorjon Ugli. "Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley." *JournalNX* 6.12: 264-267.
9. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, and Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION." *Scientific progress* 2.8 (2021): 823-825.
10. Xolikov, Raximjon, and Otabek Qo'chqarov. "BASIC PRINCIPLES OF URBANEKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT." *Конференции*. 2021.
11. Махкамов, Элёрбек Гайратович. "Рекреация ва туризмни ташкил этишда табиий шароитни баҳолашнинг назарий жиҳатлари." *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО* 1.4 (2020).
12. Хамидов, А. А., and М. Н. Дехканбаева. "ИССЛЕДОВАНИЕ БИОГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 881-886.

13. Абдурахмонов, Дилмуроджон. "ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ГЕОЭКОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ." *IJODKOR O'QITUVCHI* 2.21 (2022): 58-63.

14. Muhitdinov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li, and Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov. "FARG 'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI." *Scientific progress* 2.3 (2021): 975-980.

15. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, and Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION." *Scientific progress* 2.3 (2021): 986-989.

16. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, and Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION." *Scientific progress* 2.8 (2021): 823-825.

17. Muhitdinov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li. "SO 'X DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI." *Academic research in educational sciences* 2.7 (2021): 286-290.

18. Muhitdinov, I. I. "Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida)." *magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona* 87 (2021).

19. Muhitdinov, Ilhomjon. "O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI." *Yosh Tadqiqotchi Jurnali* 1.2 (2022): 261-263.

20. Zarifjon o'g'li, Maxammadov Zuhridin, and Muhitdinov Ilhomjon Ihtiyorjon o'g'li. "FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI." *PEDAGOGS jurnali* 2.1 (2022): 49-52.

21. Абдурахмонов Д. ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИ РЕГИОНАЛ–ЛАНДШАФТ ТАДҚИҚОТЛАРИ //О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 314-317.

22. Абдурахмонов Д. М. ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ И ДИНАМИКА ПАРАГЕНЕТИЧЕСКИХ ЛАНДШАФТОВ //Экономика и социум. – 2019. – №. 12. – С. 154-157.